

TA'LIMNING INTERFAOL USULLARI

Jaynakova Nasiba Ergashevna

Mirzacho'l tumani kasb- hunar maktabi tikuvchilik ishlab chiqarish ta'limi ustasi.

Maqolada o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabati va ilm olishga bo'lgan qiziqishini oshiradigan hamda o'quvchida yashirinib turgan qobiliyat va iste'dodlarni ro'yobga chiqaradigan ta'limning interfaol usullari va baholash mezonini keltiriladi.

There will published attention of student's for lessons and also assessing criteria's, active methods of learning to appear hidden talents and increase the interest for getting knowledge in this article.

В статье представлены интерактивные методы обучения, позволяющие повысить интерес к предмету, выявить талантливых учащихся, раскрыть их творческие способности и критерии оценивания.

Tayanch so'zlar: interfaol ta'lim usullari, damino usuli, galeriya usuli, usullarni baholash.

Klyuchevye slova: interaktivnye metody obucheniya, metod "domino", metod "galeriya", otsenivanie metodov.

Ta'limning passiv usullarida o'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqot bir tomonlama bo'lib qoladi. Ta'limning bu usullarida o'qituvchi markaziy o'rinda turadi va asosiy tashkilotchi vazifasini bajaradi. Oldindan tayyorlangan reja asosida vazifalarni o'quvchilarga bo'lib beradi. Ta'limning bu usullarida guruhning hamma o'quvchilari faol ishtirok eta olmaydilar, o'zaro muloqot qilmaydilar. Ta'limning bu usuliga ma'ruza, so'zlash va o'quvchilardan mavzuni so'rash kiradi.

Ta'limning faol usullarida o'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qolmaydi. O'quvchilar o'qituvchiga savollar beradi va aksincha o'qituvchi ham o'quvchilarga savol va topshiriqlar beradi. Bu usulda o'quvchilar o'zlarining fikrlarini erkin bayon eta oladilar. Ta'lim jarayoni o'qituvchi tomonidan to'liq rejalashtirilmaydi. Ta'limning faol usulida o'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqot ikki tomonlama bo'ladi.

Interfaol so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, inter –“o'zaro”, act- “muloqot” ma'nosini anglatadi. “Interfaol” dialog rejimida bo'lish ma'nosini ham anglatadi. Ta'limning interfaol usulida o'zaro muloqotlar qo'yidagicha bo'ladi: o'qituvchi – o'quvchi, o'qituvchi – o'quvchilar, o'quvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchilar, o'quvchi – kompyuter. Ta'limning bu usulida o'quvchilar markaziy o'rinni egallaydi, ya'ni asosiy figuraga aylanadilar. SHu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini ham bajaradi. O'qituvchi esa o'quvchilarga beriladigan topshiriqlarni tayyorlab keladi, vaqtni nazorat qiladi, konsultatsiya beradi, qiyin vaziyatlarda yordam beradi. Ta'lim berish jarayonida bu usuldan foydalanilganda dars davomida hamma o'quvchilar faol ishtirokchiga aylanadi. O'quvchilar bir-birlari bilan o'zaro fikr almashadilar. Yangi mavzuni o'zlashtirishda o'quvchilarning har biri o'z hissasini qo'shadi. Bu usulda guruhdagi barcha o'quvchilar, hatto sust o'zlashtiruvchilar ham o'zaro muloqotga kirishib, dars ishtirokchisiga aylanadilar. Ta'limning bu usulida o'quvchilarga yangi bilim olish bilan bir qatorda, boshqalarning fikrini tinglash, har xil fikrlarni baholash, fikr bildirish, bir-birin fikrini to'ldirish, muloqotda ishtirok etish, birgalikda echim topish, o'quvchilarda do'stlik munosabatlarini ham shakllantiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, interfaol usullar ta'lim bilan birga o'quvchilarni tarbiyalashda ham katta yordam beradi. Interfaol usullar o'quvchilar guruhda ishlashga o'rgatadi, asabiy charchoqlikni oladi, bir-birini tushunishga o'rgatadi, o'ziga ishonch hamda qat'iylik hissini shakllantiradi.

Interfaol usullarga:

1. Zinama-zina usuli
2. Damino usuli
3. Zukko haydovchi
4. CHigil yozdi usuli
5. Mo‘‘jizalar maydoni usuli
6. Konvert usuli
7. Sonlar tilga kirganda usuli
8. Bumerang usuli
9. Galereya usuli
10. BBB usuli
11. Kim ko‘p biladi usuli
- 12.5 daqiqa usuli
13. Nimaga va nima uchun? usuli
14. Xayoliy sayohat usuli
15. Tayanch signallar usuli
16. Qo‘llanmalar bilan ishlash usuli
17. Kubik usuli
18. Zigzag usuli
19. Seminar dars usuli
20. Masofali ta‘lim usuli
21. Ko‘chma bozor usuli
22. Kompyuterlashtirilgan dars
23. Davra suhbatlari usuli
24. Blok (to‘siq) dars usuli
25. Boshqotirmalar usuli
26. Muammoli vaziyat usuli
27. Rolli o‘yinlar usuli
28. Allomalar yig‘ini usuli
29. Tabaqalashtirilgan dars usuli

30. Xazinalar sandig'i usuli
31. Kimsasiz orolda usuli
32. Hamkorlik dars usuli
33. Arra usuli
34. Qarorlar shajarasi usuli
35. O'zing uchun qulay joy tanla usuli
36. Uchinchisi ortiqcha usuli
37. Bir savolga uch javob usuli
38. Aniqlashtirish va isbot usuli
39. Damino usuli
40. Tafakkur gulshani usuli

Quyida men o'z dars jarayonimda o'zim yaratgan interfaol usul haqida tushuncha berib o'taman.


Domino usuli

Domino usuli – fikriy jarayonlarni mos tushunchalar ketma-ketligida to'g'ri taqdim etib, biron bir shaklni hosil qilishdir. Bu usul o'quvchilarni ijodiy qobiliyatini o'stirishga, o'zaro xakkorlikda ishlashga, aqliy qobiliyatini o'stirishga, nafosat tarbiyasini rivojlanishiga olib keldi. Ushbu ta'lim usulidan darsning ixtiyoriy etapida foydalanilsa bo'ladi. Baholashda tushunchalar miqdori va mohiyati alohida e'tiborga olinadi.

Domino usulini o'tkazish tartibi

Damino usulida o'quvchilar 3 guruhga bo'linib, kichik guruhlarda ishlaydilar. Har bir guruhga marker yordamida teng ikkiga bo'lingan bir xil o'lchamdagi to'g'ri to'rtburchaklar beriladi.

Har bir guruh o'quvchilari ushbu to'rtburchakdan birini olib, o'tilgan mavzu bo'yicha ikki tomoniga ikki xil tushuncha yozadi va pinbord oynasiga yopishtiradi. Keyingi o'quvchi yozilgan ikki tushunchaning biriga mos tushuncha yozadi, ikkinchi tomoniga esa o'tilgan mavzu bo'yicha yana bir tushunchani yozadi. Oldingi o'quvchining tushunchasiga mos tushuncha yozilgan tomonni yopishtiradi.



Bu usul biron bir shakl hosil bo'lgunga qadar davom etadi:

| Ayirma | Ikki sonning yig'indisi | Matematik amallar | Geometrik shakllar | Uchburchak | Son |
|-----------------------|-------------------------|--------------------------|--------------------|------------|----------|
| Ikki sonning ayirmasi | | Ko'paytma | | | |
| Sonlar ko'paytmasi | | $a*b$ | kvadrat | | Bo'linma |
| | | $9*9$ | kub | | |
| | | Ikki sonning ko'paytmasi | Hajm | | |

Demak, yuqorida 9 ta tashkil topgan T xarfi shakli yaratildi. Xuddi shu tariqa...

«Galereya» usuli kichik guruhlarda birdaniga bir nechta masalani muhokama qilish imkonini beradi. Bunda guruhning har bir a'zosi barcha taklif etilgan masalalar muhokamasida ishtirok etishi va o'z ulushini qo'shishi mumkin.

“Galereya” usulini o'tkazish bosqichlari

1-qadam. Masalani qo'yish. O'qituvchi har bir guruhga mavzuga tegishli ma'lum bir mavzuni beradi.

2-qadam. Har bir guruhning o'z mavzusi ustida ishlashi. Tanlangan mavzular ustida ishlash kichik guruhlarda amalga oshiriladi (odatda 10 -15 minut).

3-qadam. Kichik guruhlarining qo'shni guruhlar mavzusini oxirigacha yoritishga o'tish. Har bir kichik guruh o'z mavzularini ochib bergan katta varaqni olmasdan doira bo'ylab siljiydi.

4-qadam. Qo'shni mavzuni ochib berishni oxirigacha etkazish. Har bir kichik guruh varaqqa yozilgan qo'shni guruh mavzularini o'rganadi; savol belgisi bilan rozi bo'lmaganlarni belgilaydi; qo'shni mavzuni echimi bo'yicha o'z tushunchalarini yozadi. 5 minutdan keyin guruhlar doira bo'ylab keyingi kichik guruhga o'tib, yana joylari bilan almashadi. Siljishlar soni kichik guruhlar (qo'yilgan mavzular soniga teng ya'ni 4 ga).

5-qadam. O'z mavzusiga qaytish. Mavzudan mavzuga doira bo'yicha o'tishlar har bir kichik guruh o'zining dastlabki mavzusiga qaytish bilan tugallanadi.

6-qadam. Taqdimot va ish natijalari muhokamasi. Har bir guruhning navbat bilan qog'oz varaqlarida yig'ilgan natijalarni tushuntirish va sharhlar bilan taqdim etadi. Boshqa guruhlar ular taqdimot qilayotgan guruh varag'iga yozgan o'z tushunchalarini tushuntiradilar va sharhlaydilar. Zarur hollarda tushunchalar umumiy guruhda muhokama qilinishi mumkin.

XULOSA

Jamiyatimizda ro'y berayotgan intimoiy-siyosiy o'zgarishlar va fan-texnikaning jadallik bilan rivojlanishi ta'lim mazmuniga, dars mohiyati va mazmunining takomillashuviga ob'ektiv omil vazifasini bajardi. Ta'limning interfaol usullari o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabati va ilm olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda o'quvchida yashirinib turgan qobiliyat va iste'dodlarni ro'yobga chiqaradi. Har tomonlama etuk insonni tarbiyalash bugungi jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bunday usullar o'quvchilarni tayyor bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.